

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SO'Z TARKIBI VA YASALISHINI O'RGATISH METODIKASI

*Saydullayeva Xumora Salohiddin qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
xumorasaydullayeva5@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z tarkibi va yasalishini o'rgatish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot so'zning morfologik tuzilishi, o'zagi, qo'shimchalari hamda ularning birikishi orqali hosil bo'ladigan lingvistik birliklarni o'quvchilarga samarali o'rgatish metodlarini yoritadi. So'z yasash jarayoni esa yangi ma'no hosil qilishga xizmat qiluvchi morfemalarning tarkibiy o'zgarishlari va qo'shimchalarning funksional vazifalarini anglashni talab qiladi. Shuningdek, maqolada ona tili darslarida morfologik tahlil orqali o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish usullari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. So'z tarkibi, morfema, o'zak va qo'shimchalar, so'z yasalishi, morfologik tahlil, leksik ma'no, so'z turkumlari, fonetik va morfologik birliklar, grammatik shakllanish, lingvistik kompetensiya, metodik ta'lif.

İLKÖĞRETİM SINIFI ANA DİLİ DERSLERİNDE KELIME YAPISI VE TÜRETEİLMESENİ ÖĞRETME METODOLOJİSİ

*Saydullayeva Xumora Salohiddin qizi,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi*

Özet. Bu makalede, ilköğretim sınıfı ana dili derslerinde kelime yapısı ve türetilmesini öğretme metodolojisinin bilimsel-teorik temelleri ve pratik önemi analiz edilmektedir. Araştırmada kelimelerin morfolojik yapısı, kökü, ekleri ve bunların birleşimi ile oluşan dilbilimsel birimlerin öğrencilere etkili bir şekilde öğretilemesi yöntemleri ele alınmaktadır. Kelime türetilme süreci, yeni anlamlar oluşturmayı sağlayan morfemlerin yapısal değişimleri ve eklerin işlevsel rollerini kavramayı gerektirir. Ayrıca, makalede ana dili derslerinde morfolojik analiz yoluyla öğrencilerin dilbilimsel yeterliliklerini geliştirmeye yöntemleri de incelenmektedir.

Anahtar kelimeler. Kelime yapısı, morfem, kök ve ekler, kelime türetilme, morfolojik analiz, sözcük anlamı, kelime türleri, fonetik ve morfolojik birimler, dilbilgisel oluşum, dilbilimsel yeterlilik, öğretim metodolojisi.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СОСТАВУ И СЛОВООБРАЗОВАНИЮ СЛОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Сайдуллаева Хумора Салохиддин кызы,
студентка Узбекско-Финского педагогического института*

Аннотация. В данной статье анализируются научно-теоретические основы и практическое значение методики обучения составу и словообразованию слов на уроках родного языка в начальных классах. Исследование рассматривает методы эффективного обучения учащихся морфологической структуре слова, его корню, аффиксам и их комбинациям, формирующими лингвистические единицы. Процесс словообразования требует понимания структурных изменений морфем и функциональных ролей аффиксов, способствующих формированию новых значений. Кроме того, в статье рассматриваются

методы развития лингвистической компетентности учащихся посредством морфологического анализа на уроках родного языка.

Ключевые слова: Состав слова, морфема, корень и аффиксы, словообразование, морфологический анализ, лексическое значение, части речи, фонетические и морфологические единицы, грамматическая структура, лингвистическая компетентность, методика обучения.

THE METHODOLOGY OF TEACHING WORD STRUCTURE AND FORMATION IN PRIMARY SCHOOL NATIVE LANGUAGE LESSONS

*Saydullayeva Xumora Salohiddin qizi,
student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

Abstract. This article analyzes the scientific-theoretical foundations and practical significance of the methodology for teaching word structure and formation in primary school native language lessons. The study explores effective methods for teaching students the morphological structure of words, including their root, affixes, and their combinations that form linguistic units. The word formation process requires understanding the structural changes of morphemes and the functional roles of affixes in generating new meanings. Additionally, the article examines methods for developing students' linguistic competence through morphological analysis in native language lessons.

Keywords. Word structure, morpheme, root and affixes, word formation, morphological analysis, lexical meaning, parts of speech, phonetic and morphological units, grammatical formation, linguistic competence, methodological teaching.

So‘zning leksik ma’nosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda o‘zining nazariy asosiga ega. Morfema – so‘zning eng kichik, bo‘linmaydigan ma’noli qismi. Morfema ikki turga bo‘linadi;

1. O‘zak morfema so‘zda albatta qatnashadigan va leksik ma’no anglatadigan morfema. 2. Affiksal morfema – mustaqil holda leksik ma’no anglatmay, so‘zning leksik va ma’nolarining shakllanishiga xizmat qiladigan morfema.

2. Qo‘srimchalar 2 turga bo‘linadi:

- So‘z yasovchi qo‘srimchalar. So‘zning leksik ma’nosini shakllantirish uchun xizmat qiladigan.
- Shakl yasovchi qo‘srimchalar so‘zlarning grammatik formalarini shakllantirib, turli grammatik ma’nolarini ifodalaydi.

So‘zning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan o‘quvchilar so‘zning leksik ma’nosini aniqlashning asosiy usullarini bilib oladilar. Bunda o‘qituvchining vazifasi bolalar so‘zlarining leksik ma’nosini va morfemik tarkibi bir biriga bog‘liqligini bilib olish uchun eng qulay sharoit yaratish, shu asosda ularning lug‘atiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq rahbarlik qilish hisoblanadi. So‘z morfema rolini anglash, shuningdek qo‘srimchalarning semantik ma’nosini bilish o‘quvchilarda nutqning aniq shakllanishiga ta’sir etadi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilar so‘zning leksik ma’nosini tushunibgina qolmay, matnda aniq affiksli so‘zlardan ongli foydalanishlarini oshirish hisoblanadi. So‘zning morfemik tarkibini o‘rganish orfografik malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Morfoloqik tamoyil o‘zbek orfografiyasining yetakchi tamoyili bo‘lib, bunga binoan so‘zlar va ularning tarkibiy qismi, (o‘zak va qo‘srimchalar) asliga muvofiq yoziladi [1,120 b]. O‘zak va qo‘srimchalarni to‘g‘ri yozish malakasini nazariy asosda shakllantirish fonetik so‘z yasalishiga oid, grammatik bilimlarni maqsadga muvofiq tatbiq etishni talab qiladi. Shuning uchun so‘zning morfemik tarkibini o‘rganishning muhim vazifalaridan biri o‘zak va qo‘srimchalarni to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar asosini yaratish hisoblanadi. So‘zning morfemik tarkibini o‘rganish o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini o‘sirishda, xususan, til birligi

sifatida so‘zni umumiy bilib olish uchun zarur bo‘lgan maxsus aqiliy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham ahamiyat qaratiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini tashkil qilish murakkab jarayondir. Sababi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bir xillikdan zerikib qolishadi. Bunda o‘qituvchi pedagogik mahoratini ishga solgan holda darsni noan’anaviy shaklda olib borsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Darslarda ko‘proq ularni qiziqtirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o‘quvchilarning faolligini oshirishga mo‘ljallangan o‘quvchilarni boshqarish fikrini eshitish, tushunish, ularga o‘rgatish, ta’sir qila olish, o‘zini boshqarish fikrini aniq, lo‘nda va puxta bayon eta olishga o‘rgatishdan iboratdir. O‘quv dasturlariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari so‘zning tarkibi bilan dastlab 2-sinf daligidayoq tanishadilar, ular o‘zakdosh so‘zlarning umumiy qismini topishga o‘rganadilar. 3-sinfda esa o‘zak, so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarini o‘rganadilar va shu mavzular bo‘yicha mashqlarni bajaradilar. 4-sinfda esa o‘quvchilarning 2-3-sinflarda so‘z tarkibi yuzasidan olgan bilimlari, malaka va ko‘nikmalari amaliy mashqlar jarayonida mustahkamlab, kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Bu mavzuni takrorlashga jami 5 soatgina vaqt ajratilgan, xolos. So‘z tarkibini tahlil qilishda o‘quvchilar o‘zak va qo‘shimchalarini topish, balki ulardan shu so‘zni to‘g‘ri eshita olish, to‘g‘ri talaffuz qilish va to‘g‘ri yoza olishlariga erishish talab etiladi. Buning uchun esa so‘z tarkibini aniqlashga oid mashq og‘zaki yoki yozma ravishda o‘tkazib boriladi. O‘quvchilar so‘zning morfemik tarkibini va so‘z yasalishini o‘rganishlariga qarab, so‘zni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar. So‘zda morfemaning ahamiyatini anglash, shuningdek, qo‘shimchalarining semantik ma’nosini bilish o‘quvchilarda nutqning aniq shakllanishiga ta’sir etadi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarga so‘z tarkibi va yasalishini o‘rgatishda quyidagi metodikadan foydalanish maqsadga muvofiq. Boshlang‘ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq so‘zning morfemik tarkibi 3-sinfda o‘rganiladi. 4-sinfda so‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko‘zda tutiladi. Avvalo, til materialini o‘rganish tizimi nimaligini aniqlab olish zarur. Til materialini o‘rganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va o‘zaro bog‘lanishdagi bilimlar yig‘indisini o‘zlashtirishni ta’minlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish tushuniladi [2,1320-1321 b].

So‘zning morfemik tarkibini tatbiq qilganda, tizim so‘z yasalishiga oid va grammatik bilimlarni o‘zlashtirish: 1) “o‘zak”, “o‘zakdosh so‘z”, “so‘z yasovchi qo‘shimcha”, “shakl yasovchi qo‘shimcha” tushunchalari ustida ishlashdagi izchillik bilan; 2) so‘zning morfemik tarkibi va so‘z yasalishining o‘zaro bir-biriga ta’sir qilishi bilan; 3) morfemalarni to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish ustida ishlash bilan bog‘liqligini belgilab beradi. O‘quvchilarni so‘z yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o‘qituvchi ularga muayyan bir yangi so‘z qaysi so‘zdan va qaysi morfema yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Masalan, o‘qituvchi “gul” so‘zini aytadi va gullarni parvarish qiladigan kishini bildiradigan o‘zakdosh ot tanlashni topshiradi (*gulchi*). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: O‘qituvchi so‘zni va so‘z yasovchi morfemani beradi. O‘quvchining vazifasi yangi so‘zni to‘g‘ri yasash va leksik ma’nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, suv so‘ziga -*chi* qo‘shimchasini qo‘shish yordamida yangi so‘z yasash (*suvchi*), uning leksik ma’nosini tushuntirish, qaysi so‘z turkumiga tegishli ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham o‘quvchilar so‘zni morfemik tahlil qiladilar. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini hosil bo‘lgan so‘z qaysi morfema yordamida, qaysi so‘z turkumidan yasalganiga, qanday ma’no anglatishi va qaysi so‘z turkumi ekaniga qaratadi. Bunday mashqlarda tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarining leksik ma’nosini bilan morfemik tarkibining o‘zaro bog‘liqigiga va biror so‘z turkumiga xarakterli bo‘lgan so‘z yasalishi usuliga asoslaniladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o‘tilgan darsda o‘quvchilar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishslash malakasiga ega bo‘ladilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta’lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf ona tili darslarida so‘z tarkibi va yasalishini o‘rgatish metodikasining ahamiyatini ochib beradi. So‘zning morfemik tarkibi va yasalishini o‘rganish, o‘quvchilarga nafaqat til bilimlarini kengaytirishga, balki nutqni to‘g‘ri va aniq

shakllantirishga yordam beradi. Maqolada so‘zning morfemik tarkibi, o‘zak, qo‘srimchalar, ularning grammatic va leksik ma’nosini, shuningdek, so‘z yasash jarayonlarining metodikasi haqida batafsil tushunchalar berilgan. O‘quvchilarga so‘zning morfemik tarkibini aniqlash va to‘g‘ri yozish malakalarini shakllantirish, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘srimchalarni amaliy mashqlar yordamida o‘rgatish usullari yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish printsiplari va metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. “Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi o‘quv dasturi”. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. – Toshkent, 2005. 21-33-betlar.
4. Qosimova K., Matchonov S. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 263 b.
5. Satimova R. Ona tili darslarida so‘zning morfemik tarkibini o‘rganish metodikasi. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities jurnali, 2023, – 120 b.
6. Shermatova U., G‘ulomova X. Boshlang‘ich ta’limda ona tili. – Toshkent: Zebo print, 2023. – 144 b.
7. Otabayeva Z. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. – Toshkent, 2005. – 136 b.
8. Муродовна, Р. М. Использование водных объектов при проектировании ландшафтных объектов. *JournalNX*, 125-128.
9. Kamol o‘g‘li, H. H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 55-56).